



SHO'FOKOR

SAMARQAND DAVLAT
TIBBIYOT UNIVERSITETI
NASHRI

SO'ZI

GAZETA 1938 YILDAN "MEDITSINA FANI UCHUN" NOMI BILAN CHIQA BOSHLAGAN

YANGI O'ZBEKİSTONDA BUTUN XALQIMIZ QATORI XOTIN-QIZLARIMIZ UCHUN HAM MUNOSIB SHAROITLARNI YARATIB BERISH – ENG MUHIM VAZIFAMIZ BO'LIB QOLADI

Assalomu alaykum, hayotimiz quvonchi, fayzu farishtasi bo'lgan muhtarama onaxonlar, hurmatli ota-singillar, dilbar qizlarim!

Bugun siz, azizlar bilan mana shunday tantanali anjumanda uchrashib, barchangizni, sizlarning timsolingizda butun mamlakatimiz ayollarini Xalqaro xotin-qizlar kuni bilan chin qalbdan qutlash men uchun ulkan sharaf va saodatdir.

Barcha-barchangizga samimiy mehmrim va cheksiz hurmatimni izhor etishga ijozat bergaysiz.

O'zlarangiz kabi go'zal bayramingiz muborak bo'lsin!

Muhtaram vatandoshlar!

Ushbu shukuhli ayyomda hammamiz bizni dunyoga keltirgan, oq sut berib, mehr va tarbiya berib voyaga yetkazgan buyuk ona siyosiga, mo'tabar ayol zotiga ta'zim qilamiz. Zero, inson qadrini ulug'lash avvalo azizu mukarrama ayollarimizni ulug'lashdan boshlanadi.

Shu ma'noda, Mir Alisher Navoiy bobomizning, jannat bog'idan bahramandlik istar ekansan, avvalo, munis onani rozi aylagin, degan so'zlarini biz eng ezgu da'vat sifatida qabul qilamiz.

Biz hayotimizning ma'no-mazmuni, butun borlig'imizni siz, qadrlar opa-singillarimizdan ayrı holda tasavvur etolmaymiz. Sizlar biz uchun hamisha go'zallik va nazokat, mehr va sadoqat, qanoat va shukronalik timsoli bo'lib kelgansiz va doimo shunday bo'lib qolasiz. Mana shunday oljanob fazilitatingiz bilan bizlarga hamma vaqt kuch-g'ayrat, hayotga, kelajakka ishonch bag'ishlab kelayotganingiz uchun siz, azizlarga har qancha tahsin va tasannolar atysaks, arziydi...

Qadri do'star!

Mamlakatimizda bo'lg'usi onalar, kelajak tarbiyachilari bo'lmish qizlarimiz kamolotiga, ularning oly ta'lif olishi, zamonaevi kasb-hunar va texnologiyalar, xorijiy tillarni egallashiga katta ahamiyat berilmoqda.

Hozirgi kunda oliyoholarda ta'lif olayotgan 1 million 300 ming nafarga yaqin talabaning yarmidan ko'pi – e'tibor bering, yarmidan ko'pi, ya'ni,



653 ming nafardan ziyodini qizlar tashkil etmoqda. Magistraturada o'qiyotgan yoshlarimiz orasida qizlarning ulushi yanada ko'p, ya'ni, salkam 14 ming nafarni tashkil etmoqda. Bu – jami magistrantlarning qariyb 60 foizi degani.

Joriy o'quv yiliда ehtiyojmand oilalarga mansub 1 ming 914 nafar xotin-qiz oliyoholarga qo'shimcha davlat granti bo'yicha o'qishga qabul qilindi. 181 ming 500 nafardan ortiq qizlarimiz uchun imtiyozli ta'lim kreditlari ajratildi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning vakillari, yetim qolgan yoki ota-onasi qaramog'idan mahrum bo'lgan 2 mingdan ziyod talaba uchun 14 milliard 500 million so'm kontrakt puli mahalliy budgetlar hisobidan qoplab berildi. So'nggi yillarda davlat oliyoholaringin magistratura bo'limida o'qiyotgan xotin-qizlarning kontrakt pullari budjetdan to'lanmoqda.

Keyingi paytda yurtimizda ilm-fan va ta'lif, xususan, olyi ta'lif sohasi isloh etilib, jahon standartlariga moslashtirilayotgani sababli xotin-qizlar bu yo'nalishda ham katta natijalarga erishmoqdalar. Buning amaliy ifodasini so'nggi yetti yilda 5 ming 247 nafar ayollarimiz fan doktori (DSc) va o'z sohalari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olgani misolda ko'rish mumkin. Birgina 2023 yilning o'zida 147 nafar xotin-qiz fan doktori, 1 ming 238 nafari esa falsafa doktori ilmiy darajasiga erishgani barchamizni mammun etadi.

Hozirgi kunda ilm-fan sohasida jami 5 mingga yaqin olima ayollarimiz faoliyat ko'satmoqda. Oliyoholarda esa 14 mingdan ziyod opa-singillarimiz pedagogika va ilmiy tadqiqot yo'nalishida ish olib bormoqda...

Muhtarama opa-singillar!

Siz, azizlarni bugungi bahor va nafosat bayrami bilan yana bir bor tabriklayman.

Barchangizga sihat-salomatlilik, xonadonlaringizga tinchlik-omonlik, fayzu baraka tilayman.

Har biringizga hamisha oilangiz, farzandu nabiralaringiz, el-yurtimiz ardog'iда bo'lish nasib etsin!

ILOHIM, HAR KUNIMIZ NAVRO'ZDEK GO'ZAL, NAVRO'ZDEK FAYZLI VA MAZMUNLI BO'LSIN

Assalomu alaykum, aziz va muhtaram vatandoshlar!

Uzoq-yaqindan tashrif buyurgan hurmatli mehmonlar!

Siz, qadrdonlarimni, ko'pmillati butun O'zbekiston xalqini barchamiz sog'inib kutgan Navro'zi olam bilan samimiy muborakbos etishdan baxtiyorman.

Bugun fasllar almashib, yeri ko'kda ilohiy mo'jizalar yuz bermoqda. Yangi kun, yangi mavsum, yangi hayot nafasi boshlanmoqda. Tabiat uyg'onishi bilan zimiston kechalardan zerikkan ko'ngillar yasharib-yayramoqda.

Albatta, bugungi shodiyona bayramni el-yurtimiz bilan muazzam "Yangi O'zbekiston bog'i"da o'tkazishni niyat qilgan edik. Lekin hammamiz ko'rib turibmiz – so'nggi kunlarda havo sovib, harorat biroz pasayib qoldi. Bugun obi rahmat yomg'irlari bilan osmondan rizqu ro'z, qut-baraka yoy'moqda. Hammamiz bu holatni shukronalik bilan qabul qilamiz.

Mana shu muhtasham saroya turib, barcha-barchangizga eng ezgu va samimiy tilaklarini izhor etishga ijozat bergaysiz.

Xush kelibsiz yurtimizga, go'zal Navro'z!

Olam sen bilan nurga to'lsin!

Sharqona Yangi yil hammamizga muborak bo'lsin!

Qadri do'star!

Mana shu quvonchli kunlarda ona zaminimiz, jonajon O'zbekistonimiz bamisolli ulkan va muhtasham bir sayilgohga aylanmoqda. Farg'on'a vodiysi Surxon va Qashqadaryo tog'larida, Xorazm va Qoraqalpoq diyorida, Samarqand Buxoro, Navoiyning go'zal bog'larida, Jizzaxu Sirdaryo kengliklarda, Toshkent vohasining yam-yashil adirlarida, azim

poytaxtimiz maydonlarida el-yurtimiz sayil-tomoshalar o'tkazib, Navro'zni shodu xurramlik bilan kutib olmoqda.

Navro'zi olam falsafasi bizning orzu-intilishlarimiz, amaliy ishlarimiz bilan uzviy bog'lanib ketganini bugun har qadamda yaqqol ko'rish mumkin. "Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!" degan ezgu g'oya atrofida birlashgan xalqimizning oliyanob mehnati bilan mamlakatimizda yangi-yangi zamonaevi korxonalar, shinam uy-joylar, ijtimoiy va madaniy obyektlar, yo'l va ko'priklar, bog' va xiyobonlar barpo etilmoqda. Yurtimiz qiyofasi kundan-kunga obod va go'zal bo'lib bormoqda.

Inson qadrini ulug'lash, uning hayotiy manfaatlari va ijtimoiy himoyasini ta'minlash, ehtiyojmand aholi qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, millati, tili va dinidan qat'i nazar, har bir yurdoshimizga mehr va e'tibor ko'satish faoliyatimiz mezoniga aylanmoqda.

Mamlakatimizdagagi do'stilik va hamjihatlik muhitni, yaxshi qo'shnichilik, tinchliksevar tashqi siyosat tufayli xalqaro maydonda O'zbekistonimizning obro'-e'tibori yuksalmoqda.

Navro'zi olamming insonparvarlik, tinchlik va bag'rikenglik kabi qadriyatlariga uyg'un va hamongah bunday ishlarimizni biz kelgusida yanada kengaytiramiz...

Aziz va muhtaram vatandoshlarim!

Mana shu bahoriy lahzalarda barchamiz ulug' ajdodlarimizning tilaklariga qo'shilib, ilohim, har kunimiz Navro'zdek go'zal, Navro'zdek fayzli va mazmunli bo'lsin, deb niyat qilamiz.

Barchangizga sihat-salomatlilik, yangi yutuq va zaflar, oilaviy baxt va farovonlik tilayman.

Yurtimiz tinch, xalqimiz omon bo'lsin!

SAMARQANDDA NAVRO'Z BAYRAMI SHODIYONALARI

Xalqimiz ko'klamga chiqishi bilan bahorning eng go'zal va qadriyatga aylanib qolgan yosharish va yangilanish bayrami Navro'zi olamni nishonlaydi.

Bu yil ham 21-mart – Navro'z bayramida yurtimiz bo'ylab bayram sayllari tashkil etildi. Samarqand shahrida ham bayram shodiyonalari bo'lib o'tdi. Erta tongdan shaharning markaziy ko'chalari, Alisher Navoiy nomidagi istirohat bog'i Navro'z shukuhi hamda bayramona kayfiyatdagi yurtdoshlarimiz bilan to'lib toshdi.

Katta bayramona saylda konsert tomoshalari, xalq o'yinlari hamda milliy chiqishlar namoyish etildi. Shuningdek, bir qator tashkilot va muassasalar, oliyogholar ham bayramda ishtirok etdilar. Shu jumladan Samarqand davlat tibbiyot universiteti ham bayram dasturida faol ishtirok etib, o'zining milliy qadriyatlar va urfdotlarimiz aks etgan chiqishlari, milliy taom va liboslar ko'rgazmlari, bayramona kuy-qo'shiqlari bilan hamyurtlarimizga yuqori kayfiyat ulashdi.

Bayram sayliga Samarqand viloyati hokimi Erkinjon Turdimov ham tashrif

b u y u r i b ,
b a r c h a n i
kirib kelgan
Navro'z bilan
tabrikldi.



SEN BARIBIR MUQADDASSAN, MUQADDAS AYOL!

Nafosat, sadoqat va matonat ramzi bo'lmish munis onalarimiz, opasingillarimizning borligi biz uchun ulkan baxt desak, mubolag'a bo'lmaydi. Ko'klamning ilk kunlarida aziz ayollarimizning bayramini nishonlashimiz ham bejiz emas. Zero ayollar hayotning bahoridir!

Har yili 8-mart butun dunyoda, shu jumladan yurtimizda ham keng nishonlanib, nozik xilqat egalari e'zozlanadi. Samarqand davlat tibbiyot universitetida ham 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan katta bayramona konsert dasturi tashkil etildi. Tadborda so'zga chiqqan rektor Jasur Rizayev kirib kelayotgan bayram bilan barcha opasingillarimizni tabriklab, ularga mustahkam sog'lik, omad va baxt hamisha yor bo'lishini tiladi. Shuningdek, universitetda faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar hamda xodimlar bayram munosabati bilan faxriy yorliq va esdalik sovg'alari bilan taqdirlандilar.

Bayramona tarzda kechgan tadbir konsert dasturiga ulanib ketdi. Xushovoz xonandalar Xusan, Ruxshona hamda Umida Yarmuhamedovalar ijrosidagi betakror kuy va qo'shiqlar hamda universitet talabalari tomonidan tayyorlangan chiqishlar yig'ilganlarga ko'tarinki kayfiyat baxsh etdi.

"ZULFIYA VAFO VA SADOQAT TIMSOLI" MAVZUSIDA TADBIR O'TKAZILDI

Har yili mamlakatimizda bahorning ilk kunlarida atoqli shoira Zulfiyaxonim tavalludi keng nishonlanadi. Shoiraning boy adabiy merosi e'tirof etilib, keng targ'ib qilinadi.

1-mart kuni universitet Tibbiy pedagogika fakulteti tashabbusi bilan "Zulfiya vafo va sadoqat timsoli" mavzusida tadbir tashkil etildi. Tadborda so'zga chiqqanlar shoiraning o'lmas g'oyalar bilan sug'orilgan she'riyati hamda sabr va matonat timsoli o'laroq yashab o'tgan hayoti haqida gapirib o'tdilar.

Fakultet talabalari tomonidan tayyorlangan badiiy va she'riy chiqishlar, Zulfiyaxonim ijodidan namunalar yig'ilganlarga o'zgacha ruh bag'ishlab, ularga ma'naviy ozuqa bo'ldi desak, mubolag'a bo'lmaydi.



AYOLLARIMIZ HAMISHA E'ZOZ VA E'TIBORDA

Ayollarimiz hamisha e'zoz va e'tiborda. Ular jamiyatning qaysi sohasida faoliyat yuritishidan qat'iy nazar doimo nozik qalb va latofat egasi bo'lib qolaveradilar.

Universitet Tibbiy pedagogika fakultetida ham bayram munosabati bilan fakultetda faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar va xodimlar tabriklandi. Fakultet dekani F.Daminov fakultetda faoliyat yuritayotgan barcha xotin-qizlar va talim olayotgan talaba qizlarni tabriklab ularning ish va o'qishlariga omadlar tiladi.

TIBBIYOT XODIMLARINING KASBIY MALAKASINI RIVOJLANTIRISH MARKAZI DIREKTORI TASHRIFI

1-mart kuni universitetga Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish Markazi direktori Xabibulla Akilov tashrif buyurdi. Mehmonni SamDTU rektori Jasur Rizayev kutib oldi.

Tashrif doirasida Xabibulla Akilov universitetning yangi o'quv binosi va yaratilgan sharoitlar, o'quv xonalari va ta'lim tizimi bilan yaqindan tanishdi. Shuningdek, universitetda tibbiy xodimlarga yaratilgan imkoniyatlarni ko'zdan kechirib, muloqot o'tkazdi.



Tashrif davomida Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish Markazi direktori universitet qoshida tashkil etilgan Simulyatsion markaz faoliyati, markazning yuqori texnologiyali tibbiy jihozlar bilan ta'minlanganligi hamda talabalarning bevosita amaliy darslari bilan tanishib, o'z fikr va mulohazalarini bildirdi.

Shuningdek, universitet tarixi muzeyiga ham sayohat uyushtirilib, ushbu oliygohning tarixi, rivojlanishi va bugungi kundagi faoliyati haqida ma'lumotlar taqdim etildi.

UNIVERSITETDA "ART DAY" SAN'AT KO'RGAZMASI O'TKAZILDI

5-mart kuni universitetda Universitet psixologi D.Djurayeva hamda Tibbiy profilaktika fakulteti tashabbusi bilan "Art day" san'at ko'r gazmasi o'tkazildi.

Ko'r gazzmada talabalar betakror san'at namunalardan bahramand bo'lish bilan bir qatorda o'zlarining rassomlik iqtidorlarini sinab ko'rish imkoniyatiga ham ega bo'ldilar. Shuningdek, psixolog D.Djurayeva ko'magida talabalar o'zlarini chizgan va rang bergan suratlar orqali psixologik holatlari va xarakterlari haqida ham qiziqarli ma'lumotlarga ega bo'ldilar.

Kreativ kayfiyatda o'tgan "Art day" san'at ko'r gazmasi talabalar uchun esda qolarli bo'ldi.



"MILLIYLIGIMIZ AKS ETGAN AN'ANALAR"

Universitet Yoshlar Ittifoqi Boshlang'ich tashkiloti 2-son Davolash fakulteti hamda fakultet koordinatori tashabbusi bilan 3-sonli Talabalar turar joyida talabalar o'ttasida "Milliyligimiz aks etgan an'analar" deb nomlangan tadbir tashkil qilindi.



Milliy qadriyatlar har bir millatning tili, urf-odatlari, tarixi, madaniyati, an'analarini, barcha moddiy va ma'naviy boyliklarini, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha tomonlarini o'z ichiga qamrab oladi. Ularni talaba-yoshlarga yetkazish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir.

Mazkur tadbir yoshlar tarbiyasida o'zbek milliy qadriyatlarining tutgan o'rnnini oshirish, mustahkamlash hamda buyuk ajdodlarimizdan meros bo'lgan bebafo, asl milliy qadriyatlarimizni targ'ib qilish maqsadida o'tkazildi. Ushbu tadbirda milliy taomlar va millatlarning urf-odatlari hamda an'analarini targ'ib etuvchi ko'rgazmalar namoyish etildi.

Shuningdek, "Milliy libos", "Milliy

qo'shiq" va "Milliy raqs" yo'nalishlarida talaba-qizlar tomonidan milliy qadriyatlarimiz hamda an'analarimiz aks etgan jamoaviy sahna ko'rinishlar namoyish etildi.

Tadbirda so'zga chiqqanlar tomonidan qadriyatlar har bir millatning o'tmishi, buguni va kelajagini oynadek ko'rsatib turuvchi eng muhim omillardan biri ekanligi ta'kidlandi.

O'tkazilgan ushbu tadbir so'ngida 2-son Davolash fakulteti Xotin-Qizlari tyutorlarni 8-mart Xalqaro Xotin-qizlar bayrami bilan talabalar tomonidan tabriklagan holda tadbirda faol qatnashganlar esdalik sovg'alar hamda diplom va sertifikatlar bilan taqdirlanishdi.

TEATR IJODKORLARI YOSHLAR DAVRASIDA

Millat va xalqning ma'naviyatini, fikrlashini boyitadigan eng muhim omillardan biri bu teatrdir. Teatr tomoshabinga o'zgacha kayfiyat, ruhiyat va ma'naviy ozuqa baxsh etadi.

12-mart kuni universitetda Tibbiy profilaktika fakulteti va O'zbekiston Yoshlar ittifoqi SamDTU boshlang'ich tashkiloti tashabbusi bilan "Teatr ijodkorlari yoshlar davrasida" nomli uchrashuv tashkil etildi. Uchrashuvda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Mehri Hakimova hamda teatr aktyorlari Behruz Qurbonaliyev, Shohsanam Obloqulovalar ishtirot etdilar.

Uchrashuv davomida mehmonlar talabalarga teatr va uning ahamiyati, undan olish mumkin bo'lgan ulkan

ma'naviy ozuqa haqida, shuningdek, milliy teatrimizning o'tmishi va buguni haqida qimmatli hamda qiziqarli ma'lumotlarni berib o'tdilar.

Talabalar bilan ochiq muloqot tashkil etilib, ularning teatr haqidagi fikr va mulohazalari tinglandi. Yuzaga kelgan savollarga atroflicha javoblar berildi.

Uchrashuv so'ngida mehmonlarga yoshlarni teatr san'atiga qiziqishlarini yanada oshirishga qo'shayotgan hissasi va Samarqand davlat tibbiyot universitetiga tashrifi uchun tashakkurnomalar topshirildi.



«FOR21» LOYIHA DASTURI DOIRASIDA BUYUK BRITANIYANING LIDS UNIVERSITETIGA TASHRIF

3-10-mart kunlari universitet xodimlaridan
iborat delegatsiya Buyuk Britaniyaning Lids
shahrida joylashgan Leeds Universitetiga
tashrif buyurdi.

«FOR21» loyihasi doirasida amalga oshirilgan tashrif davomida SamDTU xodimlari Buyuk Britaniyaning eng yirik universitetlaridan biri hisoblangan hamda jahon va Yevropa reytinglarida yuqori o'rnlarda turuvchi oliy ta'lim muassasasi faoliyati, u yerda yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishdilar. Tashrif davomida «FOR21» loyiha dasturi va unga doir ma'lumotlar tinglanib, tahlil qilindi. Ma'lumot o'nida aytish joizki, loyihaning maqsadi shifokor va bemor o'tasidagi aloqani yaxshilashga qaratilgan ta'lim strategiyalari, kommunikativ kompetensiyalarni yaratish bo'yicha o'quv dasturlari va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishga ko'maklashishdan iborat. «FOR21» loyihasi to'qqiza oliy o'quv yurtidan iborat konsorsium bo'lib, ulardan 3 tasi Yevropa, 2 tasi Rossiyanadan, 2 tasi O'zbekistondan va 2 tasi Qozog'istonidan iborat.

Loyihaning 2023-yilda amalga oshirilgan maqsad va vazifalari, yutuqlari e'tirof etildi. Loyha bo'yicha yakuniy hisobot tinglanib, kelgusi vazifalar belgilab olindi. Loyha ishida SamDTU delegatsiyasi ham faol ishtirok etdi. Lids universiteti rahbariyati, xususan, loyihaning bosh koordinatori, professor Anna-Mari Riids, professor Jasur Rizayevga hamkorlik uchun katta minnatdorchiligini izhor etib, munosabatlarni yanada rivojlantirishga katta qiziqish bildirdi.



“MIYADAGI SURUNKALI QON AYLANISHI YETISHMOVCHILIGI” MAVZUSIDA SEMINAR-TRENING

12-mart kuni universitetga Toshkent tibbiyot akademiyasi professor-o'qituvchilari tashrif buyurdi.

Tashrif davomida mehmonlar universitetda yaratilgan shart-sharoitlar, ta'lim tizimi va jarayonlari bilan tanishdilar. Universitet qoshidagi Simulyatsion markaz faoliyati, VII avlod robotlari bilan jihozlangan o'quv xonalari hamda Vet laboratoriya faoliyati ham ko'zdan kechirildi. Shuningdek, SamDTU ixtisoslashtirilgan ko'p tarmqoli klinikasida ishga tushishi kutilayotgan Xirurgiya markazi va operatsion blog bilan tanishildi. Mehmonlar bilan SamDTU tarixi muzeyiga ham tashrif buyurilib, universitet haqidagi qiziqarli ma'lumotlar taqdim etildi.

Tashrifning asosiy qismida “Miyadagi surunkali qon aylanishi yetishmovchiligi” mavzusida seminar-trening tashkil etildi. Tadbirni universitet rektori Jasur Rizayev ochib berib, tashkil etilgan seminarning ahamiyati haqida gapirib o'tdi.

Toshkent tibbiyot akademiyasi professor-o'qituvchilari A.Irnazarov, M.Karimov, M.Hakimovlar tomonidan SamDTU o'qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilari hamda bitiruvchi bosqich talabalari uchun “Aorta ravog'i okklyuzion-stenotik kasalliklari”,

“Tashqi qorin churralarining diagnostikasi va jarrohlik amaliyotlariga zamonaviy yondashuv” mavzularida ma'ruzalar qilinib, mahorat darslari o'tkazildi. Yuzaga kelgan savollarga atroficha javoblar berildi.



CLINICALKEY STUDENT VA OSMOSIS XORIJUY ELEKTRON O'QUV PLATFORMALARINING YANGI IMKONIYATLARI TAQDIM ETILDI

Samarqand davlat tibbiyot universiteti hamda Niderlandiyaning Elsevier nashriyot uyi bilan hamkorlik doirasida universitet professor-o'qituvchilari va talabalariga Elsevier kompaniyasining ClinicalKey Student va Osmosis xorijuy elektron o'quv platformalaridan bepul foydalananish imkoniyati yaratilgan edi.

23-fevral sanasida kompaniyaning Markaziy Osiyodagi menejeri Yana Andreyevna Bochkareva boshchiligidagi delegatsiya Samargand davlat tibbiyot universitetiga tashrif buyurdi. Tashrif doirasida SamDTU rektori bilan uchrashuv tashkil etilib, o'zaro hamkorlik masalalari muhokama qilindi. Shuningdek, platformaning yangi imkoniyatlari haqida ham ma'lumotlar berildi. Platformani universitet miqyosida ta'lim jarayoniga yanada



keng tatbiq qilish bo'yicha muzokaralar olib borildi.

BELORUSSIYA DELEGATSIYASI UNIVERSITETGA TASHRIF BUYURDI

28-fevral kuni universitetga Belorussiya delegatsiyasi tashrif buyurdi.

Grodno viloyati ijroiya qo'mitasi sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'i L.Kyeda, Grodno davlat tibbiyot universiteti prorektori V.Vorobiov, Slonom davlat tibbiyot kolleji direktori A.Gripich hamda Grodno viloyatidagi sog'liqni saqlash muassasalarini rahbarlaridan iborat delegatsiyani SamDTU rektori Jasur Rizayev kutib oldi.


Delegatsiya vakillari universitet va universiteda yaratilgan sharoitlar, ta'lim tizimi hamda ilmiy-innovatsion faoliyatni ko'zdan kechirdilar. Shuningdek, universitet muzeysiiga tashrif buyurib, universitet tarixiga oid qiziqarli ma'lumotlar bilan tanishdilar.

Uchrashuvda so'zga chiqqan rektor Jasur Rizayev, Samarqand



viloyati sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'i Suxrob Zayniyev Respublikamizda keyingi yillarda sog'liqni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar hamda viloyat miqyosida amalga oshirilayotgan ishlar xususan, tibbiy ta'limdiagi ijobil o'zgarishlar haqida gapirib o'tdilar. Shuningdek, Belorussiya delegatsiyasi vakillari tomonidan ham sog'liqni saqlash va ta'lim tizimi haqida taqdimotlar qilindi.

Uchrashuv doirasida Samargand davlat tibbiyot universiteti hamda Belorussiyaning Grodno davlat tibbiyot universiteti o'tasida hamkorlik memorandumi imzolandi. Memorandumga ko'ra endilikda ikki oliy ta'lim muassasasi o'tasida talabalar va professor-o'qituvchilarning tadqiqot va ilmiy faoliyatlarini rivojlantirishlari uchun yangi innovatsion loyihalari ishlab chiqish, shuningdek, kardiologiya, onkologiya, xirurgiya va boshqa bir qator yo'nalishlarda amaliy hamkorlikni yo'lg'a qo'yish, o'quv va akademik mobillik dasturlarini amalga oshirishga kelishildi.



"Butunjahon yoshlar festivali 2024"

Rossiya federatsiyasining Sirius federal hududida "Butunjahon yoshlar festivali" bo'lib o'tdi.



Festivalda biznes, ommaviy axborot vositalari, xalqaro hamkorlik, madaniyat, fan, ta'lif, ko'ngililik va xayriya, sport, jamiyat hayotining turli jabhabalari kabi yo'naliishlar bo'yicha 20 ming nafar rossiyalik va chet ellik yoshlar, shuningdek, turli bolalar tashkilotlari va uyushmalari vakillaridan iborat o'smirlar qatnashdi. Jumladan, Samarcand davlat tibbiyot universitetining 9 nafar bakalavr hamda 2 nafar magistratura bosqichi talabalari ham festivalda ishtirok etdi.

7-martga qadar davom etgan festival doirasida ishtirokchilar 30 dan ortiq turli dasturlarda ishtirok etib, o'z bilim va salohiyatini yanada mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'lishdi. Shuningdek, tashkil etilgan "Butunjahon yoshlar festivali 2024" turli davlat, millat va elatlardan o'rtafigidagi mustahkam do'stlik aloqalarining yanada rivojanishiga ham xizmat qildi.



SAMDTU TALABASI TURKIYADA NEYROXIRURGIYA BO'YICHA O'TKAZILGAN XALQARO TALABALAR KONFERENSIYASIDA ISHTIROK ETDI

23-25-fevral kunlari Turkiyaning Istanbul shahridagi Acibadem universitetida Neyroxirurgiya bo'yicha xalqaro talabalar konferensiyasi bo'lib o'tdi.

Konferensiya dunyoning ko'plab mamlakatlaridan yosh neyroxirurg talabalar ishtirok etdi. Shular qatorida Samarcand davlat tibbiyot universiteti Neyroxirurgiya kafedrasining "Yosh neyroxirurglar" talabalar ilmiy jamiyatini a'zosi, Pediatriya fakulteti 520-guruh talabasi Odil Holmurodov hamda Neyroxirurgiya kafedrasi assistenti Anvar Jo'rayev ham konferensiya ishtirok etishdi.

Konferensiya talabamiz "Orqa miya o'smalarining zamonaviy diagnostikasi va davolash usullari" mavzusida ma'reza qilib, o'z fikr mulohazalarini bildirdi. Tashkil etilgan mazkur xalqaro anjuman va neyroxirurgiya sohasiga qiziquvchi yosh talabalar uchun o'ziga xos tajriba maydoni bo'ldi desak, xato bo'lmaydi.

Ma'lumot o'rniда aytish mumkinki, Samarcand davlat tibbiyot universiteti Neyroxirurgiya kafedrasi hamda Acibadem universiteti o'rtafigi bir necha yillardan buyon kadrlar tayyorlash bo'yicha hamkorlik aloqalarini yo'lg'a qo'yilgan bo'lib, shu munosabat bilan, 2022-2023-yillarda mobaynida kafedramizning bir qancha professor-o'qituvchilari ushbu universitet klinikalarida o'quv kurslarida va turli konferensiyalarda qatnashdilar.



HAMSHIRALAR UCHUN GERMANIYADA ISHLASH IMKONIYATI!

Samarcand davlat tibbiyot universiteti hamda Germaniyaning OPASCA tashkiloti o'rtafigida hamkorlik aloqalarini o'rnatilgan bo'lib, birgalikda bir qator istiqbolli loyihibar amalga oshirilib kelmoqda.

Jumladan, SamDTU bazasida Samarcand viloyatiga qarashli hamshiralarni Germaniyanada mutaxassislik bo'yicha ish bilan ta'minlashga qaratilgan uchrashuv bo'lib o'tdi. Uchrashuvda SamDTU Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektori Zafar Aminov hamda Germaniyaning OPASCA tashkiloti bosh direktori Aleksey Sverdlov ishtirok etib, Samarcand viloyatiga qarashli hamshiralarning 30 nafari bilan suhbatlar tashkil etildi. Suhbat natijalari o'rganib chiqilgach, tavsiya etilgan hamshiralarni Germaniya Federativ Respublikasida mutaxassislik bo'yicha ishga joylashish imkoniga ega bo'ladilar.

Ma'lumot o'rniда aytish mumkinki, OPASCA tibbiy xizmat sifatini yaxshilash, mutaxassislar salohiyatini oshirish va bemorlarning salomatligini yaxshilash maqsadida sog'liqni saqlash jarayonlarini raqamlashtiruvchi tashkilot hisoblanib, bugungi kunda SamDTU bilan mustahkam hamkorlik aloqalarini yuritib kelmoqda.



UNIVERSITET DISSERTANTLARINING OLIY ATTESTATSİYA KOMİSSİYASI RAISI BILAN UCHRASHUVI

4-mart kuni universitetda dissertantlarning O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi raisi A.Yusupov bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Uchrashuvni rektori Jasur Rizaev ochar ekan, Ahmadbek Tadjievich Yusupovga tashrifi uchun minnatdorchilik bildirib, respublikamizda ilmiy faoliyat uchun keng imkoniyatlar yaratilganini ta'kidladi. Oliy attestatsiya komissiyasi raisi o'z so'zida yuqori malakali kadrlar tayyorlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, oly o'quv yurtidan keyingi ta'lif tizimida rejalashtirilgan yangiliklar, ilmiy daraja va unvonlarga talabgorlarni attestatsiyadan o'tkazishni osonlashtirish, tayyorlanayotgan ishlar sifatini oshirish borasidagi tashabbuslar haqida gapirdi.

Shuningdek, A.Yusupov tomonidan har bir dissertant bilan individual qabul o'tkazilib, yig'ilish ishtirokchilariiga batafsil tavsiyalar va ko'plab savollarga javoblar berildi.

TALABALARNING ILMYI-TADQIQOT FAOLIYATINI TASHKIL ETISHGA KO'MAKLASHISH DOIRASIDA UCHRASHUVLAR O'TKAZILDI

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston iqtidorli yoshlarini taqdirlash va moddiy rag'batlantirish to'g'risida"gi qaroriga ko'ra har yili mamlakatimizda qobiliyatli yoshlarni rag'batlantirish, ularni faol yaratuvchilik faoliyatiga keng jalg etish, iqtidorli o'quvchilar, talabalar va magistrantlarni qo'llab-quvvatlash, hamda munosib taqdirlashga alohida e'tibor berib kelinmoqda.



Jumladan, Samarqand davlat tibbiyot universiteti talabalari o'ttasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti stipendiyalari tanlovlari ishtiroy etish, nomzodlar uchun kerakli hujjatlar va nimalarga e'tibor berish kerakligi haqida iqtidorli talabalarning ilmiytadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'i Umida Payzullayeva tomonidan uchrashuvlar tashkil etilmoqda.

Bunda talabalarga nizom asosida qanday hujjatlarni topshirilishi, saralash bosqichlari qay tarzda o'tkazilishi, ilmiy ishlarni qanday tartibda olib borilishi, ilmiy to'garaklarning ahamiyati hamda talabalarning olib borilishi kerak bo'lgan faoliyatlari haqida ma'lumotlarni yoritish ishlarni olib borilmoqda. Talabalar ma'lum bir motivatsiyaga ega bo'lib, o'zlarini uchun qiziq bo'lgan savollarga javob olmoqdalar.

DOKTORANTLAR BILAN UCHRASHUV O'TKAZILDI

Samarqand davlat tibbiyot universiteti ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori A.Kubayev va ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i A.Kim universitetning 3-bosqich doktorantlari bilan uchrashuv o'tkazdi.

Uchrashuvda doktorantlarning ilmiy ishlari va tadqiqotlarining tayyorlik holati, ularning qaysi bosqichda ekani tahlil qilinib, aniqlangan mavjud kamchiliklar ko'rsatildi. Kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha kerakli topshiriqlar berildi.



AKADEMIK VA YOSHLAR UCHRASHUVI

1-mart kuni universitetda yurtimiz ilm-fan sohasiga katta hissa qo'shib kelayotgan akademik Dilshod Ubaydullayevich Tulyaganov bilan uchrashuv tashkil etildi.

Uchrashuvda universitet Yoshlar masalalari va ma'nnaviy-ma'rifiy ishlarni bo'yicha birinchi prorektor Eldor Sayfullaevich Tangirov, universitet professor-o'qituvchilari hamda faol talabalar ishtiroy etdilar.

Tadbir davomida akademik Dilshod Ubaydullayevich Tulyaganov o'zining ilmiy va amaliy faoliyati, akademik darajasigacha yetib kelishdagi mashaqqatlari va mehnatlari haqida talabalarga so'zlab berdi. Shuningdek, o'z ilmiy ishlari haqida talabalarga qiziqarli ma'lumotlar berib, yuzaga kelgan savollarga atroficha javoblar berib o'tdi. Dilshod Ubaydullayevich bugungi kunda yoshlarimizga yaratilayotgan qulayliklar va ilm sohasidagi imkoniyatlar haqida so'z yuritib, talaba yoshlarni yaratilayotgan bunday imkoniyatlardan unumli foydalanishga chaqirdi.

Shuningdek, mehmon bilan universitet tarixi muzeyiga ham tashrif buyurilib, SamDTUning tarixi va buguni bilan tanishtirildi. Uchrashuv yakunida akademik Tulyaganov Dilshod Ubaydullayevichga yurtimizda ilm-fan sohasida malakali mutaxassislar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashda qo'shayotgan fidokorona hissasi, ko'p yillik samarali va halol mehnatlari hamda Samarqand davlat tibbiyot universiteti bilan hamkorligi uchun tashakkurnoma taqdim etildi.

PEDIATRIYA FAKULTETINING IQTIDORLI TALABALARI TAQDIRLANDI

Universitet Pediatriya fakulteti talabalari bilan fakultet dekanini uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda bugungi kunga qadar fakultetda amalga oshirilgan ishlarni, qo'lg'a kiritilgan yutuqlar va kamchiliklarni tahlil qilinib, suhbat tashkil etildi.



Shuningdek, tadbirda fakultetda o'qishi davomida tengdoshlari orasida o'zining iqtidori va faol yaratuvchanligi, izlanuvchanligi hamda fanlarni a'lo baholarga o'zlashtirishi bilan 2022-2023-o'quv yili davomida fakultet miqyosidagi "Yil talabasi" tanlovida g'oliblikni qo'lg'a kiritigan talabalar diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlандilar. Shuningdek, ularning ota-onalariga ham tashakkurnomalar topshirildi.

Shuningdek, tadbir davomida talabalar tomonidan tayyorlangan «Hoji Tam-Tam hangomalari» nomli sahna ko'rinishi namoyish etildi.



QUROLLI KUCHLAR HARBİY TIBBIYOT AKADEMIYASI VAKILLARI BILAN UCHRASHUV



13-martda universiteda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Harbiy tibbiyot akademiyasi vakillari bilan uchrashuv tashkil etildi.

Uchrashuvda SamDTU 1 va 2-son Davolash ishi fakultetining talabalari ishtirok etdi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Harbiy tibbiyot akademiyasi vakillari tomonidan talabalarga akademiyaning tarixi, faoliyati hamda unda yaratilgan imkoniyatlar haqida ma'lumotlar berildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Harbiy tibbiyot akademiyasiga hujjat topshirish va o'qish tartibi

va Bakalavriyat, Harbiy internatura, Klinik ordinatura, Magistratura, Doktorantura ta'lif yo'nalishlari va mutaxassisliklari haqida ham batafsil ma'lumotlar berildi. Talabalar o'zlarini qiziqitgagan savollarga javob olish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

TALABALAR BILAN KICHIK SERJANTLAR MAKTABIGA SAYOHAT UYUSHTIRILDI

15-mart kuni universiteda tahsil olayotgan talabalarning bo'sh vaqtini mazmuni tashkil etish hamda yoshlarni vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbida ona yurtga bo'lgan muhabbatni yanada oshirish maqsadida SamDTU II bo'lif tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligiga qarashli Samarqand viloyat kichik mutaxassislar tayyorlash markaziga tashrif amalga oshirildi.



JAMOAT SALOMATLIGI TEKNIKUMIDA BIOETIKA VA TIBBIYOT MASALARIGA BAG'ISHLANGAN MAHORAT DARSI OTKAZILDI

15-mart kuni universitet tibbiy pedagogika, xalq tabobati va oliy hamshiralik ishi fakulteti "ijtimoiy va gumanitar fanlar" kafedrasi mudiri, dotsent A.Maxmudova tomonidan Abu Ali Ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi o'quvchilari va o'qituvchilari uchun "Bioetika" fanidan mahorat darslarini o'tkazdilar.



SAMDTU QUYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI

2-SON DAVOLASH ISHI FAKULTETI

2-son ichki kasalliklar va kardiologiya kafedrasi, kafedra mudiri lavozimiga - 1 o'rin;

1-son xirurgik kasalliklar, transplantologiya va urologiya kafedrasi, assistant lavozimiga - 2 o'rin.

TIBBIY PEDAGOGIKA, OLIY HAMSHIRALIK ISHI VA XALQ TABOBATI FAKULTETI

Pedagogika va psixologiya kafedrasi, dotsent lavozimiga - 1 o'rin;

Psixiatriya, tibbiy psixologiya va narkologiya kafedrasi, stajyor assistant lavozimiga - 1 o'rin; Endokrinologiya kafedrasi, stajyor assistant lavozimiga - 1 o'rin.

PEDIATRIYA ISHI FAKULTETI

1-son pediatriya va neonatologiya kafedrasi,

assistant lavozimiga - 1 o'rin;
Nurli diagnostika va terapiya kafedrasi,
assistant lavozimiga - 1 o'rin;
Nurli diagnostika va terapiya kafedrasi, stajyor
assistant lavozimiga - 1 o'rin;
Yuqumli kasalliklar kafedrasi, assistant
lavozimiga - 1 o'rin.

DIPLOMDAN KEYINGI TA'LIM FAKULTETI
Tibbiy radiologiya kafedrasi, assistant
lavozimiga - 2 o'rin.

FARMATSIYA FAKULTETI
Farmakognoziya kafedrasi, assistant
lavozimiga - 1 o'rin;
Farmakognoziya kafedrasi, stajyor assistant
lavozimiga - 1 o'rin;
Biologik kimyo kafedrasi, stajyor assistant
lavozimiga - 1 o'rin.

Kafedra mudiri lavozimini egallash uchun tanlovda fan doktori, fan nomzodi ilmiy darajasiga, professor yoki dotsent ilmiy unvoniga, shuningdek falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega bo'lgan shaxslar qatnashishi mumkin.

Dotsent lavozimini egallash uchun tanlovda fan doktori, fan nomzodi (PhD) ilmiy darjasiga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan shaxslar qatnashishi mumkin. Katta o'qituvchi, assistant yoki stajyor assistant lavozimini egallash uchun tegishli mutaxassislik bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar (magistr diplomli mutaxassis) qatnashishi mumkin.

Hujjalarning e'lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida qabul qilinadi.

Manzil: Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 18-uy.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARI HARBİY TIBBIYOT AKADEMIYASI O'QISHGA TAKLIF ETADI

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Harbiy tibbiyot akademiyasi vakillari bilan uchrashuv tashkil etildi.



2024-yilning 10-apreliga qadar davom etadi. Akademiyada quyidagi ta'lif yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha ta'lif jarayoinlari yo'lga qo'yilgan:

I.BAKALAVRIYAT

- harbiy vrach (1 yil)

II. HARBIY INTERNATURA

- Ichki kasalliklar (terapiya) (1 yil)

- Umumiy xirurgiya

- Yuqumli kasalliklar yo'nalishlar bo'yicha (1 yil)

III. KLINIK ORDINATURA

- Ichki kasalliklar (terapiya) (2 yil)

- Umumiy xirurgiya (3 yil)

- Yuqumli kasalliklar (2 yil)

IV. MAGISTRATURA

- Harbiy sog'iqliqi saqlashni tashkil etish va menejmenti (2 yil)

V. DOKTORANTURA

- Harbiy tibbiyot (3 yil)

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Harbiy tibbiyot akademiyasiga O'zbekiston Respublikasi Oliy tibbiy ta'lif muassasalarini davolash fakulteti 5-bosqich talabalarini hamda Tibbiy profilaktika fakulteti 4-bosqich talabalarini hujjat topshirishlari mumkin.

Shuningdek, Harbiy tibbiyot akademiyasi talabalariga quyidagi imtiyoz va yengilliliklar ko'zda tutilgan:

Bepul yotoqxona (2 o'rini);

Uch mahal bepul issiq ovqat;

Fasliga qarab bepul harbiy kiyim-kechaklar;

Pul ta'minoti (stipendiya):

- Qoniqarli bahoga o'qigan kursantlarga - 886 949 so'm;

- Yaxshi bahoga o'qigan kursantlarga - 1.009.792 so'm;

- Alo bahoga o'qigan kursantlarga - 1.163.064 so'm.

Shahar transportlaridan bepul foydalanish;

Harbiy davolash muassasalarida bepul davolanish;

Qishda 15 kunlik ta'til yozda esa 30 kunlik ta'til;

Yozgi ta'ilga te'mir yo'l va davlat avtovoztransportidan bepul foydalanish;

Ota-onalar yer va mol-mulk solig'idan ozod etiladi



SamDTU Operativ xirurgiya va topografik anatomiya hamda 1-son Xirurgik kasalliklar va transplantologiya kafedralari 2024-yil 1-aprel kuni soat 08:00 da Operativ xirurgiya va topografik anatomiya fanidan 1-son Davolash ishi fakultetining 236-240 guruh talabalari uchun integral ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: "Топографическая анатомия передней брюшной стенки и операции вентральных грыз" ("Qorinning oldingiyon devori topografiyasi va ventral churralar operatsiyalari").

Ma'ruzachilar: T.f.n., dotsent Sh.I.Tuxtanazarova hamda PhD, dotsent B.A.Mardonov.

Manzil: Operativ xirurgiya va topografik anatomiya kafedrasi ma'ruzalar zali.

Takif qilinganlar: Kafedra assistentlari, dekanat xodimlari, klinik ordinotorlar va magistratura rezidentlari.

Kafedra mudirlari: T.f.d., dotsent S.E.Mamaradjabov hamda t.f.d., professor Z.B.Kurbaniyazov.

SamDTU Psixiatriya, tibbiy psixiologiya va narkologiya hamda Nevrologiya kafedralari 2024-yil 1-aprel kuni soat 09:35 da Psixiatriya, narkologiya. Tibbiy psixiologiya fanidan Pediatriya ishi fakultetining 516-519 guruh talabalari uchun integral ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: "Умственная отсталость. Олигофрения. Клиника, дифференциальная диагностика, параклинические методы исследований, психоопрофилактика" ("Aqliy zaiflik. Klinik belgilari, darajalari. Differentsial tashxis. Paraklinik tekshiruvlar interpretatsiyasi. Psixoprofilaktika").

Ma'ruzachilar: PhD, assistant Ch.A.Kuchimova hamda t.f.n., dotsent K.V.Shamirina.

Manzil: Psixiatriya, tibbiy psixiologiya va narkologiya kafedrasi ma'ruzalar zali.

Takif qilinganlar: Kafedra assistentlari, dekanat xodimlari, klinik ordinotorlar va magistratura rezidentlari.

Kafedra mudirlari: T.f.n., dotsent A.S.Velilyayeva hamda t.f.d., professor A.T.Djurabekova.

SamDTU Farmakognoziya va farmatsevtik texnologiyalar hamda Farmatsiya ishini tashkil qilish kafedralari 2024-yil 3-aprel kuni soat 09:35 da Farmakognoziya fanidan Farmatsiya fakultetining 301-306, 312-314 guruh talabalari uchun integral ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: "Лекарственные растения и сырье, содержащие флавоноиды" ("Tarkibida flavonoidlar saqlovchi dorivor o'simliklar va mahsulotlar").

"Инновационные взгляды на побочных действий лекарственных препаратов и полирегмазия" ("Dori vositalaringin noyo'ya ta'siri bo'yicha innovatsion qarashlar hamda polipragsmaziya").

Ma'ruzachilar: Farm.f.n., professor K.K.Orinbasarova hamda PhD, N.S.Bazarova.

Manzil: Tibbiy kimyo kafedrasi ma'ruzalar zali.

Takif qilinganlar: Kafedra assistentlari, dekanat xodimlari, klinik ordinotorlar va magistratura rezidentlari.

Kafedra mudirlari: PhD. N.D.Kodirov hamda PhD. N.S.Bazarova.

SamDTU 4-son Ichki kasalliklar hamda Ftiziatriya va Pulmonologiya kafedralari 2024-yil 4-aprel kuni soat 8:00 da Pulmonologiya fanidan 2-son Davolash ishi fakultetining 411-415 guruh talabalari uchun integral ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: "О'pka infiltratlari qiyosiy tashxisi. Shifoxonadan tashqari va nozokamial pneumonia yillarda COVID-19 interstitial virusli pneumonia. O'pka o'chqoli va yallig'langan sili".

Ma'ruzachilar: PhD, dotsent J.A.Ismoilov hamda PhD., dotsent X.I.Turdibekov.

Manzil: 4-son Ichki kasalliklar kafedrasi ma'ruzalar zali.

Takif qilinganlar: Kafedra assistentlari, bo'lim shifokorlari, klinik ordinotorlar, TIJga a'zo talabalari, o'quv bo'limi va barcha qiziquvchilar.

Kafedra mudirlari: PhD., dotsent J.A.Ismoilov hamda PhD., dotsent X.I.Turdibekov.

SamDTU 3-son Akusherlik va ginekologiya hamda Ichki kasalliklar kafedralari 2024-yil 4-aprel kuni soat 10:05 da Akusherlik va ginekologiya hamda Ichki kasalliklar fanlaridan 2-son Davolash ishi fakultetining 620-624 guruh talabalari uchun integral ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: "Homiladorlik davridagi gipertenziv kasalliklar va ularning profilaktikasi".

Ma'ruzachilar: PhD., assistant Y.A.Tangiroya hamda PhD., dotsent Z.B.Babamuradova.

Manzil: 3-son Akusherlik va ginekologiya kafedrasi ma'ruzalar zali.

Takif qilinganlar: Kafedra assistentlari, bo'lim shifokorlari, klinik ordinotorlar, magistrilar, TIJga a'zo talabalari, o'quv bo'limi va barcha qiziquvchilar.

Kafedra mudirlari: PhD., dotsent N.N.Shavazi hamda PhD., dotsent Z.B.Babamuradova.

SamDTU Umumiy gigiyena va ekologiya hamda Bolalar kasalliklari propedevtikasi kafedralari 2024-yil 4-aprel kuni soat 11:10 da Gigiyena va ekologiya fanidan Pediatriya ishi fakultetining 316-320 guruh talabalari uchun integral ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: "Bolalar va o'smirlar gigiyeninasining umumiy asoslari".

Ma'ruzachilar: Katta o'qituvchi Z.S.Naimova hamda t.f.d., dotsent D.T.Rabbimova.

Manzil: Umumiy gigiyena va ekologiya kafedrasi ma'ruzalar zali.

Takif qilinganlar: Kafedra professor-o'qituvchilar, o'quv bo'limi.

Kafedra mudirlari: T.f.d., professor B.T.To'xtarov hamda t.f.d., dotsent D.T.Rabbimova.

SamDTU Ichki kasalliklar propedevtikasi va 1-son ichki kasalliklari kafedralari 2024-yil 4-aprel kuni soat 11:10 da Ichki kasalliklar propedevtikasi va gematologiya fanlaridan 2-son Davolash ishi fakultetining 225-229 guruh talabalari uchun integral ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: "Yurak qon-tomir tizimi tekshirish usullari. So'rabsurishtirish. Ko'zdan kechirish. Yurakning palpatsiya va perkussiya maqsadi, texnikasi"

Ma'ruzachilar: PhD., assistant D.R.Toirov hamda t.f.n., dotsent K.M.Abdiyev.

Manzil: Ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasi ma'ruzalar zali

Takif qilinganlar: Kafedra assistentlari, bo'lim shifokorlari, o'quv bo'limi va barcha qiziquvchilar.

Kafedra mudirlari: T.f.n., dotsent S.X.Yarmuxamedova hamda PhD. L.S.Maxmanov.

SamDTU 3-son Akusherlik va ginekologiya hamda 1-son Pediatriya va neonatologiya kafedralari 2024-yil 5-aprel kuni soat 10:00 da Akusherlik va ginekologiya fanidan 1-son Davolash ishi fakultetining 620-624 guruh talabalari, magistrlar va klinik ordinotorlar uchun integral ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: "Преждевременные роды". ("Muddatdan oldingi tugrug").

Ma'ruzachilar: T.f.d., dotsent N.N.Shavazi hamda PhD., assistant M.F.Ibragimova.

Manzil: 3-son Akusherlik va ginekologiya kafedrasi ma'ruzalar zali.

Takif qilinganlar: O'quv bo'limi, kafedra o'qituvchilar va barcha qiziquvchilar.

Kafedra mudirlari: PhD., dotsent N.N.Shavazi hamda t.f.d., professor N.M.Shavazi.

SamDTU DKTF Xirurgiya, endoskopiya va anesteziologiya-reanimatologiya hamda 2-son Ichki kasalliklar va kardiologiya kafedralari 2024-yil 05-aprel kuni soat 11:00 da Xirurgiya fanidan vrach-tenglovchilar, klinik ordinotor va magistratura rezidentlari, xirurglar va yuqori kurs talabalari uchun integral ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: "O'tkir qorin". Klinika. Diagnostika. Differensial diagnostikasi. Diagnostika va davolashda hozirgi zamон qarashlar.

Ma'ruzachilar: T.f.n., dotsent S.I.Narzullayev hamda t.f.d., professor E.N.Tashkenbayeva.

Manzil: "Qorasuv maskani" RSHTYOIM Samarcand filiali, konferensiyan zal, 2-qavat.

Takif qilinganlar: Xirurgiya va terapiya kafedralari xodimlari, RSHTYOIMSF xirurgiya va terapiya bo'limlari xodimlari, yuqori bosqich talabalari va barcha qiziquvchilar.

Kafedra mudirlari: PhD. N.A.Kurbanov hamda t.f.d., professor E.N.Tashkenbayeva.

SamDTU Operativ xirurgiya va topografik anatomiya hamda Umumiy xirurgiya kafedralari 2024-yil 08-aprel kuni soat 08:00 da Operativ xirurgiya va topografik anatomiya fanidan 1-son Davolash ishi fakultetining 236-240 guruh talabalari uchun integral ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: "Топографическая анатомия брюшной полости, операции на органах брюшной полости" ("Qorin bo'shligining topografik anatomiysi va qorin bo'shligi a'zolarining operatsiyalari").

Ma'ruzachilar: T.f.n., dotsent Sh.I.Tuxtanazarova hamda DSC., dotsent U.A.Sherbekov.

Manzil: Operativ xirurgiya va topografik anatomiya kafedrasi ma'ruzalar zali.

Takif qilinganlar: Kafedra assistentlari, dekanat xodimlari, klinik ordinotorlar va magistratura rezidentlari.

Kafedra mudirlari: T.f.d., dotsent S.E.Mamaradjabov hamda DSC., dotsent U.A.Sherbekov.

SamDTU Ichki kasalliklar hamda 3-son Pediatriya va tibbiy genetika kafedralari 2024-yil 12-aprel kuni soat 11:05 da Ichki kasalliklari fanidan Pediatriya ishi fakultetining 416-420 guruh talabalari uchun integral ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: "Tuhundon o'smalari" va "Ko'krak sut bezi raki".

Ma'ruzachilar: PhD., dotsent G.T.Rabbimova hamda PhD., assistant M.N.Karimova.

Manzil: 2-son Akusherlik va ginekologiya kafedrasi ma'ruzalar zali.

Takif qilinganlar: Magistri va klinik ordinotorlar, o'quv bo'limi, kafedra o'qituvchilar va barcha qiziquvchilar.

Kafedra mudirlari: T.f.d., professor B.B.Negmadjanov hamda PhD. H.U.Aripova.

Mavzu: "O'tkir revmatik isitma. Orttilrilgan yurak nuqsonlari. Mitral va aortal yurak nuqsonlari".

Ma'ruzachilar: PhD., dotsent Z.B.Babamuradova hamda PhD., dotsent v.b. Sh.S.Baxramov.

Manzil: Ichki kasalliklar kafedrasi ma'ruzalar zali.

Takif qilinganlar: Kafedra assistentlari, o'quv-uslubiy bosharma bo'limi xodimlari, dekanat xodimlari, klinik ordinotorlar va magistratura rezidentlari.

Kafedra mudirlari: T.f.d., professor L.A.Muxamadiyeva hamda PhD., dotsent Z.B. Babamuradova.

SamDTU Nevrologiya hamda Odam anatomiya kafedralari 2024-yil 16-aprel kuni soat 09:35 da Nevrologiya fanidan Xalqaro ta'lim fakultetining 513-516 guruh talabalari uchun integral ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: "Motor system" ("Harakat tizimi").

Ma'ruzachilar: PhD., dotsent v.v.b. K.V.Smirina hamda assistant Kalina Roza.

Manzil: Nevrologiya kafedrasi ma'ruzalar zali.

Takif qilinganlar: Kafedra assistentlari, dekanat xodimlari, klinik ordinotorlar va magistratura rezidentlari.

Kafedra mudirlari: T.f.d., professor A.T.Djurabekova hamda t.f.n., dotsent N.O.Hamrakulova.

SamDTU Operativ xirurgiya va topografik anatomiya hamda 1-son Xirurgik kasalliklar va transplantologiya kafedralari 2024-yil 18-aprel kuni soat 08:00 da Operativ xirurgiya va topografik anatomiya fanidan Pediatriya ishi fakultetining 230-233 guruh talabalari uchun integral ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: "Топографическая анатомия и оперативная хирургия шеи" ("Bo'yinning topografik anatomiysi va operativ xirurgiyasi").

Ma'ruzachilar: T.f.n., dotsent Sh.I.Tuxtanazarova hamda PhD., assistant J.I.G'ozibekov.

Manzil: Operativ xirurgiya va topografik anatomiya kafedrasi ma'ruzalar zali.

Takif qilinganlar: Kafedra assistentlari, dekanat xodimlari, klinik ordinotorlar va magistratura rezidentlari.

Kafedra mudirlari: T.f.d., dotsent S.E.Mamaradjabov hamda t.f.n., dotsent Z.B.Kurbaniyazov.

SamDTU Ichki kasalliklar propedevtikasi va 1-son ichki kasalliklar kafedralari 2024-yil 23-aprel kuni soat 14:50 da Ichki kasalliklar propedevtikasi va Ichki kasalliklar fanlaridan Pediatriya ishi fakultetining 206-210 guruh talabalari uchun integral ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: "Yurak auskulatsiyasi. Asosiy va qo'shimcha eshitish nuqtalari. I va II ton xususiyatlari, III va IV ton paydo bo'lish mexanizmi. Yurak shovqinlar tasniifi".

Ma'ruzachilar: Katta o'qituvchi F.Yu.Nazarov hamda PhD., assistant K.A.Islamova.

Manzil: Ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasi ma'ruzalar zali

Takif qilinganlar: Kafedra assistentlari, bo'lim shifokorlari, o'quv bo'limi va barcha qiziquvchilar.

Kafedra mudirlari: T.f.n., dotsent S.X.Yarmuxamedova hamda t.f.n., dotsent X.X.Xamrayev.

SamDTU 4-son Ichki kasalliklar hamda Klinik farmakologiya kafedralari 2024-yil 24-aprel kuni soat 8:00 da Pulmonologiya fanidan 2-son Davolash ishi fakultetining 406-410 guruh talabalari uchun integral ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: "Bronzial astma. Tarqalishi, etiologiyasi, patogenezi, tashxiyi va differensial tashxisi, davolash, profilaktikasi. Astmatik status, tasniifi, klinikasi, davolash tamoyillari."

Ma'ruzachilar: PhD., dotsent J.A.Ismoilov hamda PhD., katta o'qituvchi O.A.Siddikov.

Manzil: 4-son Ichki kasalliklar kafedrasi ma'ruzalar zali.

Takif qilinganlar: Kafedra assistentlari, bo'lim shifokorlari, klinik ordinotorlar, TIJga a'zo talabalari, o'quv bo'limi va barcha qiziquvchilar.

Kafedra mudirlari: PhD., dotsent J.A.Ismoilov hamda PhD., katta o'qituvchi O.A.Siddikov.

SamDTU 2-son Akusherlik va ginekologiya hamda Onkologiya kafedralari 2024-yil 24-aprel kuni soat 10:00 da Akusherlik va ginekologiya fanidan Pediatriya ishi fakultetining 516-519 guruh talabalari, magistrlar va klinik ordinotorlar uchun integral ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: "Tuhundon o'smalari" va "Ko'krak sut bezi raki".

Ma'ruzachilar: PhD., dotsent G.T.Rabbimova hamda PhD., assistant M.N.Karimova.

Manzil: 2-son Akusherlik va ginekologiya kafedrasi ma'ruzalar zali.

Takif qilinganlar: Magistri va klinik ordinotorlar, o'quv bo'limi, kafedra o'qituvchilar va barcha qiziquvchilar.

Kafedra mudirlari: T.f.d., professor B.B.Negmadjanov hamda PhD. H.U.Aripova.

Tahririyat raisi:

J.A. RIZAYEV

Bosh muharrir:

E.S. TANGIROV

Tahrir hay'ati:

G'.U.Lutfullayev,

S.A.Karabayev,

A.A.Axmedov, J.F.Kadirov,

B.E.To'xtarov, F.A.Daminov,

S.E.Mamaradjabov,

N.M. Shavazi, O.A.Xamidov,

D.Sh.Abdujaxmanov

SHIFOKOR SO'ZI

Nashr uchun mas'ul:

O. Muratov

Operator va sahifalovchi:

A. Xolboyev

Fotomuxbir:

O.Axmedov



Gazeta Samarqand viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 18.01.2007 y. 09-33 raqami bilan ro'yxatga olingan.

INDEKS: 5539

MANZIL: Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi 18-uy.
Tel: (99866) 233-09-76 Faks: (99866) 233-71-75
e-mail: shifokor@samti.uz, sammi@sammi.uz

Gazeta SamDTU bosmaxonasida, ofset usulida chop etiladi.

Nashrga ruxsat berildi: 2024-yil, 27-mart. Adadi 200 nusxa. Buyurtma: 26